

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga 15- 19 may kunlari 241 nafar fuqarodan murojaat kelib tushdi

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga 15-19 may kunlari **241 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefonlari va jamg‘arma manziliga hafta davomida **13(5,4%)** nafar imtiyozga ega fuqarolardan **e’tirozli og‘zaki va yozma murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **to‘rt nafar bemorlar davolanish sifatidan, o‘z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi hamda shifokorlar qarovidan, Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemorning otasi shifoxonada **shifokorlar qarovidan noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlar** qildilar.

Ushbu murojaat yuzasidan shifoxona mas’ullariga telefon orqali murojaatchining ma’lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas’ullariga bemor e’tirozi o‘rinliligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaat o‘z vaqtida bartaraf qilindi**.

Jizzax viloyati Jizzax shahrida yashovchi fuqaro **Bolalar milliy tibbiyot markazida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanish davrida **shifokorlar qarovi hamda davolash sifatidan noroziligini bildirib yozma murojaat** qildi. Fuqaroning yozma murojaati tegishli bo‘limlar tomonidan o‘rganish jarayonida.

Xorazm, Buxoro, Samarqand, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida yashovchi **imtiyozga ega fuqarolardan** Jamg‘armaning ishonch telefoniga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga ma’lumotlari berildi, **og‘zaki murojaatlar ijobi hal qilindi**.

Xududiy bosh mutaxassislarga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga imtiyozli yo‘llanma asosida shifoxonaga davolanishga yotgunga qadar Sog‘liqni saqlash xodimlari mas’ul bo‘lishligi, imtiyozli yo‘llanma bilan davolanishda ko‘rsatilgan tibbiy yordam hajmi va sifati yuzasidan e’tirozlarni Jamg‘arma manzillariga murojaat qilish yuzasidan joy(KTMP, OP, OShP)larga qo‘yilgan **“Eslatma”** bo‘yicha hududlardan ijrosi yuzasidan ma’lumotlar jamlanmoqda.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**